

OLIIY TA'LIM TIZIMINI MIQDOR VA SIFAT KO'RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI

Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi

Toshkent xalqaro moliyaviy
boshqaruv va texnologiyalar universiteti o'qituvchisi,
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Bozorova Muazzam Hamid qizi,

Yangi asr universiteti o'qituvchisi,
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Аннотасија

Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimi sifatini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholash uchun kompleks yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodologiya taqdim etiladi. Tadqiqotda xalqaro tajriba va milliy kontekst uyg'unlashtirilib, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari faoliyatini chuqur tahlil qilish imkonini beruvchi indikatorlar tizimi shakllantirilgan. Taklif etilgan metodologiya ta'lim sifati, professor-o'qituvchilar salohiyati, talabalar bilim darajasi, ilmiy-tadqiqot faoliyati, moddiy-texnik baza hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini baholashni qamrab oladi. Mazkur yondashuv oliy ta'lim muassasalarining ichki imkoniyatlarini aniqlash, global raqobatga tayyor kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatini barqaror ravishda oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim sifati, miqdoriy ko'rsatkichlar, sifat ko'rsatkichlari, baholash metodologiyasi, global raqobatbardoshlik, ta'lim dasturlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, xalqaro standartlar.

Аннотация

В статье представлена разработанная на основе комплексного подхода методология оценки качества системы высшего образования с учетом количественных и качественных показателей. В исследовании обоснована система индикаторов, позволяющая всесторонне анализировать деятельность высших учебных заведений Узбекистана с учетом международного опыта и национального контекста. Предложенная модель охватывает такие направления, как качество образовательного процесса, квалификация преподавателей, уровень знаний студентов, научно-исследовательская деятельность, материально-техническая база и эффективность духовно-просветительской работы. Данный подход способствует выявлению внутренних возможностей вузов, подготовке конкурентоспособных кадров и устойчивому повышению качества образования.

Ключевые слова: качество высшего образования, количественные показатели, качественные показатели, методология оценки, глобальная конкурентоспособность, образовательные программы, духовно-просветительская работа, международные стандарты.

Abstract

This article presents a methodology developed on the basis of a comprehensive approach to assess the quality of higher education systems using quantitative and qualitative indicators. The study introduces a system of indicators that enables an in-depth analysis of the activities of higher education institutions in Uzbekistan, combining international experience with national context. The proposed model covers areas such as the quality of the educational process, faculty qualifications, students' knowledge levels, research activities, material and technical infrastructure, and the effectiveness of moral-educational work. This approach contributes to identifying internal capacities of universities, preparing globally competitive specialists, and ensuring the continuous improvement of education quality.

Keywords: higher education quality, quantitative indicators, qualitative indicators, assessment methodology, global competitiveness, educational programs, moral-educational activities, international standards.

KIRISH

Zamonaviy globallashtirish jarayonida oliy ta'lim tizimi nafaqat milliy taraqqiyotning tayanch omili, balki xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshlikni belgilovchi strategik soha sifatida qaralmoqda. Har bir mamlakatning innovatsion salohiyati, iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy barqarorligi, birinchi navbatda, oliy malakali mutaxassislar tayyorlash sifati bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun oliy ta'lim tizimini zamonaviy mezonlar asosida baholash, uni takomillashtirishga xizmat qiladigan aniq indikatorlar tizimini yaratish dolzarb ilmiy-amaliy vazifadir.

Bugungi kunda dunyo bo'ylab oliy ta'lim sifati faqat soniy ko'rsatkichlar emas, balki sifatli mezonlar bilan ham baholab borilmoqda. Bu esa o'z navbatida xalqaro standartlarga mos va barqaror ishlaydigan baholash metodologiyasini shakllantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini isloh qilish va uning global reytinglardagi o'rnini mustahkamlash borasida muhim qadamlar tashlanmoqda. Biroq mavjud baholash usullari ko'pincha biryoqlama yondashuv bilan cheklanadi.

Ushbu maqolada oliy ta'lim sifati va samaradorligini aniqlovchi miqdoriy hamda sifat ko'rsatkichlari asosida kompleks baholash tizimini ishlab chiqish masalasi yoritiladi. Tadqiqotda xalqaro tajribalar va milliy kontekst uyg'unlashtirilgan holda, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan zamonaviy metodologiya asoslab berildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim sifati baholash mavzusida ko'plab xalqaro va milliy tadqiqotlar olib borilgan. AQSh va Buyuk Britaniya kabi rivojlangan davlatlarda sifat ko'rsatkichlarini belgilash va baholash metodologiyalari keng qo'llaniladi. Misol uchun, AQShda "National Survey of Student Engagement (NSSE)" ta'lim tashkilotlari sifati baholash uchun keng qo'llaniladi (Kuh, 2009). Yevropa davlatlarida esa sifatni ta'minlash bo'yicha Yevropa standartlari va ko'rsatmalari (ESG, 2015) asosida oliy ta'lim tizimlari baholanadi.

Marginson (2016) oliy ta'limning global raqobatbardoshligini o'lchashda miqdoriy ko'rsatkichlar (talabalar soni, bitiruv darajasi) va sifat ko'rsatkichlar (dastur dolzarbligi, ishga joylashish) o'rtasidagi muvozanatni ta'kidlaydi.

Oliy ta'lim sifatini baholash bo'yicha tadqiqotlar so'nggi o'n yilliklarda keng tarqaldi. Hazelkorn (2015) esa universitetlar reytinglarida ko'proq akademik natijalarga e'tibor qaratilishi va ijtimoiy ta'sirning e'tibordan chetda qolayotganini tanqid qiladi. Shu bilan birga, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha tadqiqotlar cheklangan bo'lib, asosan Sharq mamlakatlari kontekstida o'rganilgan. Masalan, Al-Attas (1993) ta'limda ma'naviy qadriyatlarni integratsiyalash talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi.

Ayrim tadqiqotlarga ko'ra, yoshlar bilan ishlash sohasida talabalarning ijtimoiy faolligi va universitetdagi tashkilotlarda ishtirok etishi ularning o'qishdagi muvaffaqiyati va kelajakdagi karyerasiga ta'sirini ko'rsatadi. Shu bilan birga, UNESCO (2021) hisobotida yoshlarning ijtimoiy loyihalarga jalb qilinishi oliy ta'limning jamiyatdagi rolini kuchaytirishi ta'kidlanadi.

Biroq, ushbu sohalarni miqdoriy va sifat jihatidan birlashtirgan kompleks metodologiya hali yetarli emas. Mavjud tadqiqotlar asosan alohida-alohida ko'rsatkichlarni o'rganadi, bu esa har tomonlama baholash uchun yetarli emas.

Ushbu maqola avvalgi tadqiqotlardagi bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va yoshlar bilan ishlashni oliy ta'lim sifatini baholashning ajralmas qismi sifatida qabul qiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimidagi mavjud ko'rsatkichlar tahlil qilindi, xalqaro tajribalar (AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya) o'rganildi va taqqoslandi. Baholash metodologiyasini yaratishda sifat va miqdoriy baholash usullari integratsiyalashgan holda foydalanildi. Ko'rsatkichlar tizimi quyidagi asosiy yo'nalishlarda ishlab chiqildi:

- Ta'lim jarayonini boshqarish sifati.
- Professor-o'qituvchilar tarkibi sifat darajasi.
- Talabalar bilim darajasi va bitiruvchilar raqobatbardoshligi.
- Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalari.
- Oliy ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasi.
- Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va yoshlar bilan ishlash samaradorligi.

Har bir ko'rsatkich uchun vazn koeffitsientlari belgilanadi.

Umumiy skor 100 ballik tizimda hisoblanadi:

$$S = \sum (K_i \times V_i)$$

Bu yerda S – umumiy skor, K_i – ko'rsatkichning vazni, V_i – ko'rsatkichning qiymati (yoki normallashtirilgan qiymat).

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini baholashda miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini kompleks tarzda tahlil qilish zarur. Mazkur ko'rsatkichlar ta'lim

sifatini yaxshilash, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash va universitet xalqaro reytingini oshirish uchun muhim omillar hisoblanadi.

Miqdoriy baholash ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan talabalar soni va bitiruv darajasi universitet obro'sining asosiy indikatoridir. Yillik qabul ko'rsatkichining barqaror o'sishi ta'lim tashkilotining talabalar orasidagi ommabopligini, bitiruvchilar foizining yuqoriligi esa ta'lim jarayonining samaradorligini aks ettiradi. O'qishni tashlab ketish darajasining past bo'lishi ta'lim tashkilotida talabalarning qoniqishi yuqori ekanligidan dalolat beradi.

1-jadval

Miqdor baholash ko'rsatkichlari¹

Baholash mezonlari	Ko'rsatkichlar
Talabalar soni va bitiruv darajasi	Yillik qabul qilingan talabalar soni, bitiruvchilar foizi, o'qishni tashlab ketish darajasi
Professor-o'qituvchi — talaba nisbati	Professor-o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar soni
Moliyaviy ko'rsatkichlar	Yillik byudjet, talabaga sarflanadigan xarajat, grant mablag'lari
Ilmiy faoliyat natijalari	Ilmiy maqolalar, patentlar va ixtirolar soni
Ishga joylashish	Bitiruvchilarning 6 oy ichida ishga joylashish foizi
Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar	Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar soni, sport bilan muntazam shug'ullanuvchi talabalar soni

Professor-o'qituvchi — talaba nisbatining maqbul darajada bo'lishi ta'lim sifatini oshiruvchi muhim omildir. Har bir professor-o'qituvchiga 12-16 ta talaba to'g'ri kelishi ideal ko'rsatkich hisoblanadi. Agar mazkur nisbat yuqori bo'lsa, o'quv jarayonida individual yondashuv kamayib, ta'lim samaradorligi pasayishi mumkin.

Moliyaviy ko'rsatkichlar universitetning moddiy-texnik bazasi va ta'lim sifatini aniqlovchi muhim omil hisoblanadi. Universitetning yillik byudjeti va har bir talabaga ajratilayotgan xarajat miqdori o'quv jarayonining sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Shuningdek, grant mablag'larining ko'pligi universitetning ilmiy salohiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Ilmiy faoliyat natijalari universitetning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ilmiy maqolalar, patentlar va ixtirolarning ko'p bo'lishi ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi universitet tomonidan berilayotgan ta'lim sifatining amaliy jihatdan mehnat bozori talabalariga mosligini ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkich yuqori bo'lsa, bu universitet bitiruvchilari bozorda yuqori raqobatbardosh ekanligini anglatadi.

Oliy ta'lim tizimi nafaqat akademik bilimlarni yetkazib berish, balki talabalarning ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash uchun ham mas'uldir. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va yoshlar bilan ishlash oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarning axloqiy qadriyatlarini shakllantirish, ularning jamiyatga moslashuvi va faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

¹ Muallif ishlanmasi

Sifat baholash ko‘rsatkichlari universitet faoliyatini yanada chuqurroq baholash imkoniyatini beradi. Ta’lim dasturlarining zamonaviy talablarga va xalqaro standartlarga mosligi, xalqaro akkreditatsiyalarning mavjudligi universitet bitiruvchilarining global mehnat bozorida tan olinishini ta’minlaydi.

Professor-o‘qituvchilar malakasi ham ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ilmiy darajaga ega professor-o‘qituvchilarning soni va ularning muntazam ravishda malaka oshirishi ta’lim samaradorligini oshiradi. Talabalarning qoniqish darajasini muntazam o‘rganish ta’lim tashkilotining rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

2-jadval

Sifat baholash ko‘rsatkichlari¹

Baholash mezonlari	Ko‘rsatkichlar
Ta’lim dasturlari sifati	Zamonaviy talablarga mosligi, xalqaro akkreditatsiyalar mavjudligi
Professor-o‘qituvchilar malakasi	Ilmiy darajaga ega professor-o‘qituvchilar ulushi, malaka oshirish kurslarida qatnashish
Talabalar qoniqish darajasi	So‘rovnoma natijalari
Ish beruvchilar fikri	Bitiruvchilarning ish joyidagi kompetensiyalar haqida fikrlar
Tadqiqot va innovatsiya sifati	Ilmiy ishlarining dolzarbligi, xalqaro hamkorlikdagi loyihalar natijalari
Ma’naviy-ma’rifiy ishlarining samaradorligi	Yoshlarning ijtimoiy faolligi darajasi, yoshlar tashkilotlari ishtiroki darajasi, sport infratuzilmasining holati

Ish beruvchilarning universitet bitiruvchilari kompetensiyalari haqidagi fikrlari ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur fikrlar asosida universitet ta’lim dasturlarini muntazam takomillashtirib, zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashtirib borishi zarur.

Tadqiqot va innovatsiyalar sifatining yuqori bo‘lishi universitetning xalqaro reytingini oshirishda katta rol o‘ynaydi. Xalqaro loyihalarda faol ishtirok etish, ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligi universitetning global raqobatbardoshligini oshiradi.

Metodologiyaga an’anaviy akademik ko‘rsatkichlarga qo‘shimcha ravishda ma’naviy-ma’rifiy ishlar va yoshlar bilan ishlash samaradorligi kiritilishi talabalarning volontyorlik, klublar yoki ijtimoiy loyihalardagi faolligini oshirishni rag‘batlantiradi. Albatta bunda ma’naviy-ma’rifiy ishlarining madaniy va ijtimoiy kontekstga bog‘liqligi hisobga olinishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim sifatini baholashda miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini uyg‘unlashtirgan kompleks yondashuv eng samarali va istiqbolli yo‘nalishdir. Taklif etilgan metodologiya OTM faoliyatini chuqur tahlil qilish, ularning ichki imkoniyatlarini baholash va rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Metodologiyada o‘qitish sifati, ilmiy faoliyat, moddiy-texnik baza, ma’naviy-ma’rifiy ishlar va talabalar faolligini o‘z ichiga olgan ko‘rsatkichlar tizimi

¹ Muallif ishlanmasi

shakllantirilgani — oliy ta’limni faqat bilim beruvchi emas, balki ijtimoiy mas’uliyatli institut sifatida baholashga imkon beradi.

Quyidagi takliflar oliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi:

- Baholash metodologiyasini tajriba tariqasida OTMlarda joriy etib, real natijalar asosida sozlash;
- Har bir OTM uchun moslashtirilgan baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- Subyektiv fikrlarni kamaytirish uchun aniq va ishonchli so‘rov shakllarini ishlab chiqish;
- O‘qituvchilar va boshqaruv xodimlarini yangi baholash tizimi bilan ishlashga tayyorlash;
- Baholash natijalarini strategik qarorlar qabul qilishda faol foydalanish.

Ushbu takliflarning hayotga tatbiq etilishi O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va jamiyatda ijobiy ta’sir kuchini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kuh, G. D. (2009). The National Survey of Student Engagement: Conceptual and Empirical Foundations. *New Directions for Institutional Research*, 2009(141), 5-20.
2. European Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG). (2015). Brussels: EURASHE.
3. OECD (2019). *Education at a Glance 2019: OECD Indicators*. Paris: OECD Publishing.
4. UNESCO (2018). *Handbook on Measuring Equity in Education*. Montreal: UNESCO Institute for Statistics.
5. Al-Attas, S. M. N. (1993). *Islam and Secularism*. International Institute of Islamic Thought.
6. Hazelkorn, E. (2015). *Rankings and the Reshaping of Higher Education: The Battle for World-Class Excellence*. Palgrave Macmillan.
7. Marginson, S. (2016). *Higher Education and the Common Good*. Melbourne University Press.
8. UNESCO. (2021). *Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education*. UNESCO Publishing



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournlbot](https://t.me/marketinjournlbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**